



## O'ZBEK HAJVIYASINING ABDULLA QODIRIY IJODIY ASARLARIDA YARATILISHI

---

*Yunusova Farangis Mamir qizi*

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada xalqning boy ijodi, ko'p yillik sharqona adabiyot shuningdek G'arb adabiyotining noyob hajviya namunalari mahorat maktabi vazifasini bajarganligi, adibning "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" yoki "Toshpo'lat tajang nima deydi?" kabi hajviy qissalari, undagi obrazlar nutqi va muomalasida mashhur Afandi latifalari, xalq kitoblari, ertak va dostonlariga xos tasvirlash usullari va uslubi qo'shilib ketganligi, hajviy adabiyotning asosiy xususiyati, belgisi mavjud hayotiy illatlarni, insondagi nuqsonlarni korsatish, unda kulgu, masxara, tanqidiy ruh ustuvorlik qilishi misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijod, xalq, sharqona, mahorat, latifalar, ertak, doston, kulgu, tanqid

O'zbek tilshunosligida ham nasriy matnlardagi grammatik vositalarning lisoniy imkoniyatlari keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, Abdulla Qodiriy o'zbek milliy romanchiligiga asos solgan bo'lsada uning hajviy asarlari ham boshqalarga o'xshamaydigan o'ziga xos bo'lgan leksik-morfologik xususiyatlarga ega nasriy asarlardir. Qodiriy asarlari matnida qo'llanilgan lisoniy birliklar bir-biridan farq qilishi tabiiy. Leksemalarning ma'nodoshlik qatoridan har bir asarga boshqa boshqa so'zlar, badiiy tasviriy vositalar tanlab olinadi, hajviy asarlarda ko'proq salbiy bo'yoqdor so'zlar qo'llanilishi ma'lum. Frazologik birikmalar ham o'quvchida kulgu, kesatiq, piching kayfiyatini hosil qiluvchi ma'noda bo'ladi. Bunday asartaning o'ziga xos xususiyati shundaki, milliy tilga xos bo'lgan o'zaro muloqotda faol bo'luvchi leksik birliklardan foydalaniladi. Muloqotda qo'llanilgan birliklar, fonetik, morfologik, sintaktik jihatdan sezilarli farq qiladi. Jadidlar davri nasriy asarlari matnlarining morfologik xususiyatlari ham yetarli tadqiq qilinmagan, o'zbek tilining fonetik, morfologik, sintaktik birliklarining hajviy matndagi o'ziga xos ma'no taraqqiyoti alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Abdulla Qodiriy o'z asarlari bilan nafaqat o'zbek adabiyoti, shuningdek, o'zbek tili grammatikasining takomillashishiga ham katta hissa qo'shgan yozuvchi hisoblanadi.

Tilshunoslikda hajviy ruhdagi asarlar tilini leksik- morfologik jihatdan tekshirib ko'rish, leksikologiya, morfologiya, stilistikaning o'ziga xos jihatlarini kashf etishga



zamin hozirlaydi. Shu nuqtayi nazardan hajviy matnlarda konnotativ ma'no taraqqiyotini o'rganish, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari turlarining ishtirok etish darajasini solishtirish, qolaversa bog'lovchi, ko'makchi, ayniqsa, yuklamalarning matndagi ifoda imkoniyatlari, ma'no qirralarini o'rganish zarurati mavjud.

Abdulla Qodiriy ijodiy merosida qariyb saksondan ortiq katta-kichik hajviyalar o'z mavzuyi, janri jihatdan bir-birini to'ldirib, o'zbek milliy hajviyasi zaminini yaratadi. Hususan, "Tinch ish", "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?" kabi hajviy hikoyasi, qissalari adib ijodida ham, umumadabiyotimiz rivojida ham muhim hodisadir. To'g'ri, adib hajviyachiligi o'z-o'zidan yaralmagan. Eng avvalo, xalqning boy ijodi, ming yillik sharqona adabiyot shuningdek G'arb adabiyotining noyob hajviya namunalari mahorat maktabi vazifasini bajargan, deyish mumkin. Zero, adibning "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan, yoki "Toshpo'lad tajang nima deydi?" kabi hajviy qissalari, undagi obrazlar nutqi va muomilasida mashhur Afandi latifalari, xalq kitoblari, ertak va dostonlariga xos tasvirlash usullari va uslubi qo'shilib ketgan. U yaratgan Shanf Oxund, Shirvon xola, Kalvak Mag'zum, Toshpo'lad tajang kabi xarakterlarni ifodalovchi nomlar faqat ijodkorning o'zigagina tegishli bo'lib qoldi. Abdulla Qodiriyning "Tinch ish" hikoyasini ko'p qodirnyshunoslar hajviy asar sirasiga kiritmasligiga ham guvoh bo'lish mumkin, biroq Sharif Oxund obraziga kelganda undagi hajviylikdan ko'z yumib bo'lmaydi, chunki Sharif Oxund o'z ma'nomohiyati bilan hajviy qahramondir. U sodda kulgudan ko'ra, achchiq, kinoyali kuigugamansub. Asardagi lavhalar asar qahramoni Sharif Oxund xarakteri yechimida o'ziga xos bosqichlarni hosil qilgan. Birinchi lavhada qahramon xarakteri va holatiga xos portret yaratilgan bo'lsa, ayni chog'da uning ikki muhim belgisi, islomiyligi va siyosiylik qayd etilsa, ikkinchi lavhada oq podsho Nikolayning taxtdan tushish oqibati, buning qahramon ruhiyatiga ta'siri ifoda etiladi.

Abdulla Qodiriy yaratgan deyarli barcha hajviy asarlarda ana shunday ijtimoiy-siyosiy fikr u yoki bu tarzda har bir asarga boshqa boshqa so'zlar, badiiy tasviriy vositalar tanlab olinadi, hajviy asarlarda ko'proq salbiy bo'yoqdor so'zlar qo'llanilishi ma'lum. Frazologik birikmalar ham o'quvchida kulgu, kesatiq, piching kayfiyatini hosil qiluvchi ma'noda bo'ladi. Bunday asartaning o'ziga xos xususiyati shundaki, milliy tilga xos bo'lgan o'zaro muloqotda faol bo'luvchi leksik birliklardan foydalaniladi. Muloqotda qo'llanilgan birliklar, fonetik, morfologik, sintaktik jihatdan sezilarli farq qiladi. Jadidlar davri nasriy asarlari matnlarining morfologik xususiyatlari ham yetarli tadqiq qilinmagan, o'zbek tilining fonetik, morfologik,



sintaktik birliklarining hajviy matndagi o'ziga xos ma'no taraqqiyoti alohida tadqiqot obyektini sifatida o'rganilmagan. Abdulla Qodiriy o'z asarlari bilan nafaqat o'zbek adabiyoti, jumalistikasi, shuningdek, o'zbek tili grammatikasining takomillashishiga ham katta hissa qo'shgan yozuvchi hisoblanadi. Shu ma'noda, yozuvchining hajviy ruhda yaratilgan asarlarini leksik-morfologik aspektida tadqiq etish dolzarbdir.

Tilshunoslikda hajviy ruhda asarlar tilini leksik- morfologik jihatdan tekshirib ko'rish, leksikologiya, morfologiya, stilistikaning o'ziga xos jihatlari kashf etishga zamin hozirlaydi. Shu nuqtayi nazardan hajviy matnlarda konnotativ ma'no taraqqiyotini o'rganish, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari turlarining ishtirok etish darajasini solishtirish, qolaversa bog'lovchi, ko'makchi, ayniqsa, yuklamalarning matndagi ifoda imkoniyatlari, ma'no qirralarini o'rganish zarurati mavjud.

Abdulla Qodiriy ijodiy merosida qariyb saksondan ortiq katta-kichik hajviyalar o'z mavzuyi, janri jihatdan bir-birini to'ldirib, o'zbek milliy hajviyasi zaminini yaratadi. Hususan, "Tinch ish", "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?" kabi hajviy hikoyasi, qissalari adib ijodida ham, umumadabiyotimiz rivojida ham muhim hodisadir. To'g'ri, adib hajviyachiligi o'z-o'zidan yaralmagan. Eng avvalo, xalqning boy ijodi, ming yillik sharqona adabiyot shuningdek G'arb adabiyotining noyob hajviya namunalarini mahorat maktabi vazifasini bajargan, deyish mumkin. Zero, adibning "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan, yoki "Toshpo'lad tajang nima deydi?" kabi hajviy qissalari, undagi obrazlar nutqi va muomilasida mashhur Afandi latifalari, xalq kitoblari, ertak va dostonlariga xos tasvirlash usullari va uslubi qo'shilib ketgan. U yaratgan Shanf Oxund, Shirvon xola, Kalvak Mag'zum, Toshpo'lad tajang kabi xarakterlarni ifodalovchi nomlar faqat ijodkorning o'zigagina tegishli bo'lib qoldi. Abdulla Qodiriyning "Tinch ish" hikoyasini ko'p qodirnyshunoslar hajviy asar sirasiga kiritmasligiga ham guvoh bo'lish mumkin, biroq Sharif Oxund obraziga kelganda undagi hajviylikdan ko'z yumib bo'lmaydi, chunki Sharif Oxund o'z ma'no-mohiyati bilan hajviy qahramondir. U sodda kulgudan ko'ra, achchiq, kinoyali kulgu tarzda o'z ifodasini topgan. Bir jihatdan adib yaratgan "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan hamda "Toshpo'lad tajang nima deydi?" kabi hajviy qissalari muhim ahamiyatga egadir. Har ikkisi ham qurilishiga ko'ra o'ziga xos bo'lib bir-birini takrorlamaydi.

Agar "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan qissasi qariyb yigirmaga yaqin hajviyalardan tarkib topgan bo'lsa, "Toshpo'lad tajang nima deydi?" qissasi o'ndan ortiq turkum asarlardan tarkib topgan. Har ikki asarda ham



boshqahramono'shaalohida-alohida turkummaqomida hajviyalarni bir-biriga bog'lab turadi. Va asarga yaxlitlik bag'ishlaydi. Shuningdek, hayot illatlaridan kulish, ijtimoiy illatlar, nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan. tanqid ruhi bo'laklarini uzviy bog'laydi, g'oyaviy- badiiy birlik yuzaga keladi. Ba'zi qodiriyshunoslar bu holatni felyetonlar tizmasidan, turkumidan iborat deb hisoblaydi. Zero hajviy adabiyotning asosiy xususiyati. belgisi mavjud hayotiy illatlarni, insondagi nuqsonlarni hajv etishga shu asosda obyektни yo tasdiqlash, yo inkor etish maqsadlarini ilgari suradi. Albatta unda kulgu, mashara, tanqidiy ruh ustuvorlik qiladi. To'g'ri felyetonda ham shu holat yetakchi ammo, u aniq shaxsga, aniq davrga, aniq obyektga qaratilganligi bilan farqlanib turadi. Binobarin, felyeton janrida badiiy umumlashtirish, individuallashtirish hajviy hikoya yoki qissaga nisbatan chegeralanganligi bilan farqlanadi. Modomiki, shunday ekan, mavjud har ikki qissani faqat felyetonlar yig'indisi, turkumi yoki to'plami deb baholash mavjud qissalar xususiyatini va hajviy individualligini anglamaslikka olib boradi.

Agar adib o'zining "Tinch ish" hikoyasida Sharif Oxund kabi dinda ham, siyosatda ham o'zini o'ta bilimdon qilib ko'rsatishga intilgan, aslida esa har ikkisidan ham chalasavod shaxs hatti-harakatidan kulsa va kuldirsa, endi Kalvak Maxzum qiyofasida boshida savat yanglig salla-yu, egnida zarvaraq to'n va qo'lida yuz bittalik tasbeh bilan salobat to'kkan chiranchig, har bir narsani o'z qarichi bilan o'lchaydigan, "oxir zamon ishlari dan jar solgan, hammani aqlsiz-u o'zini aqilli qilib ko'rsatadigan takasaltanglar ustidan kulgu uyg'otadi. Zero, Maxzum bu holatga to'satdan tushib qolgan emas. Uning ildizi u tarbiyalanib voyaga yetgan ijtimoiy muhitda, ma'naviy axloqiy tuban va johil oilada voyaga yetganidan edi.

Adib mahorati shundaki, ana shu fikrni asoslash va unga o'quvchida ishonch uyg'otish uchun qissa o'rtalarida Maxzum tarjimai xolini tilning eng sarabadily tasvir vositalarida berishidir. Go'yo shu holat asarga yaxlitlik, qahramonga to'la-to'kislik bag'ishlaydi. Adib yaratgan hajviy xarakterlar orasida Kalvak Maxzum o'ta murakkab ko'rinishga ega. Bu jihatdan "Tinch ish" dagi Sharif Oxundga yaqin turadi. Xuddi shuningdek, Maxzum nutqida ham shu holatni ko'rish mumkin. Agar Toshpo'lat tajang, Shirvon xola va hatto Sharif Oxund nutqi oddiy so'zlashuv tiliga yaqinligi bilan o'zaro hamoxang bo'lsa, Kalvak Maxzumda esa eski qadimgi murakkab, kitobiy nutqning o'zginasi ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bois Maxzum nutqi, dabdabali, burama, murakkabdir. Zero, Kalvak Maxzum adib yaratgan haqqoniy hajviy obrazlar orasida ana shu jihati bilan ajralib turadi. U ham kulgili ham fojeali obrazdir. Shu sababli kitobxonda goh nim tabassum, goh achchiq kinoyali, goh fosh etuvchi kulgu almashib turadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodiriy Abdulla. Tanlangan asarlar Biz kim va nimalardan qo'rqamiz?
2. Qalandar Sapayev Hozirgi o'zbek adabiy tili Uslubiy qo'llanma. 254 b.
3. Qodiriy Abdulla Chiqib bozor aro poshshoyi tanga kirib o'lturdi ketkan jon tanga. Kichkina feleto'n
4. Tursunov U. Rahmatullayev Sh. Qo'ng'urov R. Hozirgi o'zbek adabiy tili